Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi

Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI (O‘YIN-MASHQLAR)



BUXORO 2020

Ushbu metodik tavsiya boshlang‘ich sinflarda o’qish va sinfdan tashqari o’qish darslarini samarali tashkil etish masalalariga bag’ishlanadi. Tavsiyada boshlang’ch sinf o‘quvchilarida matnni o’qish va uni tushunish darajasini ta’minlovchi zamonaviy o’yin-mashqlar keltirilgan.

Tuzuvchi: **Aslanova Nozima Xakimovna**

Taqrizchilar:

G.T.Yadgarova - Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri, Ps.f.n, dotsent

Sh.Sh.Olimov - BuxDU, P.f.n, professor

Ushbu metodik tavsiya Buxoro viloyati XTXQTMOHM ilmiy kengashining 2020 yil __ _____dagi ___-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Kirish

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimi kundan kunga takomillashib bormoqda. Xususan, maktabgacha va boshlang‘ich tizimini samarali tashkil etish va unga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonida sifat va samaradorlikka erishishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy ta’lim esa o‘quvchilarga beriladigan bilimlarning to‘laqonli amalga oshirilishini ko‘zda tutadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan matematika, ona tili, o‘qish, tabiatshunoslik, texnologiya va boshqa fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarni nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish ularni har tomonlama rivojlantirishning garovi bo‘lib hisoblanadi. Xususan, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarda o‘qish, yozuv, hisoblash savodxonligini rivojlantirish, ularda savodli o‘qish malakalarini shakllantirish, o‘qiganlarini tushunish darajasini oshirish, o‘quvchilarda kitobxonlikka havas uyg‘otish aynan kichik maktab yoshidan amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarda “O‘qish savodxonligi”ni oshirish o‘qish tezligini tekshirishni emas, balki “savodli o‘qish”ni rivojlantirishni anglatadi. Unga ko‘ra, o‘quvchi o‘qiganlarini tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, matnlar yuzasidan o‘z fikrlarini bayon eta olishi zarur. Shu sababdan o’qish darslarini tashkil etishda asosiy e’tiborni o’quvchilarda kitob o’qishga havas uyg’otishga qaratmog’miz darkor. Badiiy asarlarni o’qishga qiziqtirish uchun esa matn ustida ishlash mashqlariga muhim ahamiyatga ega.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI (O‘YIN-MASHQLAR)

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi sababli barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talab yanada oshmoqda.
Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizni darslarga qiziqtirib borishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarorida eng ustivor vazifa qilib quyidagilar qilindi:

- Xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o‘qish, matematika
va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan davlat ta’lim standartlari, o‘quv
dasturlari hamda o‘quv adabiyotlari mazmuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
- PISA baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar milliy bazasini yaratish va o‘quv dasturlariga integratsiya qilish;
-
O‘quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini yaratish va 2019-2021
yillarda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o‘tkazib borish.

Vazirlar Mahkamasining 997-sonli qarorida quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha **xalqaro tadqiqotlar** tashkil etilishi qayd etilgan:

- **Progress in International Reading and Literacy Study** (PIRLS) — boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;
- **Trends in International Mathematics and Science Study** (TIMSS) — 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;
- **The Programme for International Student Assessment** (PISA) — 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;
- **The Teaching and Learning International Survey** (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun.

2021 yilda O‘zbekiston Respublikasi qaysi xalqaro dasturlarda ishtirok etadi:

- **(PISA)** — 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash,
- **(PIRLS)** — boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash.

Shu o‘rinda “Ta’lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O‘zbekistonga nima beradi?”, degan savol tug’iladi. Bu savollarga quyidagi javoblar mavjud:

1. Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta’lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi;
2. Milliy ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish dasturlarini

takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo‘llaniladi;
3. Xalqaro tadqiqotlar ta’lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o‘tkazishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:
4. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

PIRLS tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtrok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta'lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

Xo’sh, ***PIRLS*** *tadqiqotlari boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun qanday ahamiyatga ega? Ma’lumki, dasturda 4-sinf o’quvchilarining matnni o’qish va tushunish darajalari baholanadi. Tadqiqotga ishtirok etib, samarali natijalarni qo’lga kiritish uchun avvalambor, o’quvchilarni o’qishga qiziqtirish lozim. Motivatsiyani shakllantirish uchun esa quyidagi savollarga javob izlash zarur. Bular*

- O’quvchilar nega o‘qimaydilar?
- Buning uchun nima qilishimiz kerak?
- Kitob mutolaasi bolaga nima beradi?
- Bolani o‘qishga qanday o‘rgatamiz? va boshqalar…

Ko‘pgina ota-onalar bolalarining umuman kitob o‘qimasligi, kitoblarga qiziqmasligi, kitob o‘qish o‘rniga turli videolar tomosha qilib vaqtini zoe ketkazayotganligidan noliydilar. Buning asosiy sababi o‘qishga qiziqmaslikdir. O‘qishga qiziqmaslikning sababi esa o‘qiy olmaslik. Inson biror ishni

bajara olmasa, demak unga nisbatan qiziqishi so‘nib boradi. Shunday ekan, avvalambor, o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishimiz kerak ekan. Oilada ota-onalarning namunasi ham bolalarga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Shuni unutmaslik kerakki oilada mutolaa bolalarni ham kitobxonlikka chorlaydi. Qush uyasida ko‘rganini qiladi, degan naql bejiz emas.

Buning uchun avvalambor, bolalarga berilgan vazifani bajarishni o‘rgatishimiz kerak. Beriladigan vazifalar bola uchun quvonchli kayfiyat bag‘ishlashi zarur. Sen vazifani uddalamading, bu ishing o‘xshamadi, deb bolalarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirib qo‘yishimiz mumkin. “Sen mana shu matnni tezda o‘qib chiq”, deyishdan ko‘ra, “shu matnga sarlavha qo‘y”, “matn ichidan unli harflar bilan boshlanadigan so‘zlarni topib, tezda tagiga qalam bilan chizib chiq”, “matnda nechta undosh tovush bilan boshlanuvchi so‘zlar mavjud ekan”... tarzida bolaga matn, hikoya haqida ma’lumot to‘plashga, uning matn bilan tanishishiga imkon berishimiz kerak. Matn asosida ishlangan rasm yoki animatsiyalar ham matn mazmunini tushunishga yordam berishini unutmasligimiz kerak. Bola matn mazmunini tushunsa, uni o‘qiy oladi. Matnni hech bo‘lmaganda 3 marta o‘qib chiqqanidan so‘ng bolaga endigi vazifa bir daqiqadi tezroq sur’atda o‘qishni taklif qilishimiz mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda tez o‘qish ongli idrok etishni ta’minlaydigan o‘qishdir. Og‘zaki nutq tempiga mos keladigan o‘qish tempi normal tezlik hisoblanadi. O‘ta tez o‘qish va o‘ta sekin o‘qish matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi. O‘qish tezligi bir daqiqada o‘qiladigan so‘zlar miqdori bilan belgilanadi.

Tez o‘qishni ta’minlash yo‘llari quyidagilardan iborat:

1. O‘qishni turli topshiriqlar asosida mashq qilish
2. O‘qishga qiziqish uyg‘otish

3. Rollarga bo‘lib o‘qitish: Dialoglarni 2 o‘quvchiga o‘qitish:
a) oldin tez o‘qiydigan o‘quvchiga;
b) keyin sekin o‘qiydigan o‘quvchiga o‘qitish;
4. Matnni navbat bilan o‘qitish.



Boshlang‘ich sinflarda tez o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi samarali usul “Matn ustida ishlash” mashqlari bo‘lib hisoblanadi. Tez o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun, avvalambor, bolani matn bilan tanishtirish kerak. Matnni tez o‘qishga tayyorgarlik ishlari quyidagilardan iborat.

Boshlang‘ich sinflarda tez o‘qish o‘yinlari sinfda o‘qish va sinfdan tashqari o‘qish darslarida olib boriladi. Bu mashqlar matn **“So‘zni top”, “Diqqat qil va kuzat”, “Kengaytirish mashqi”, “Unli tovushlarni topish”, “To‘g‘ri va teskari o‘qish”** mashqlari misol bo‘ladi.

“SO‘ZNI TOP”, “DIQQAT QIL VA KUZAT” turkumidagi mashqlarga:

- Matn ichidan kerakli so‘zni topish,
- Matnga sarlavha qo‘yish,
- Matndan unli harflar bilan boshlanadigan so‘zlarni topib tagiga chizib chiqish,

- Matndan undosh harflar bilan boshlanadigan so‘zlarni topish,
- Matndagi qo‘shilib qolgan gaplarni ajratib chiqish,
- Matnni pardacha ortidan kuzatib tez o‘qib chiqish,
- Matndagi qo‘shilib qolgan so‘zlarni ajratib chiqish vazifalarini berish orqali matnga diqqatni qaratish va uni kuzatish ko‘nikmalarini shakllantirish vazifalari hal etiladi.

“MATNDAN KERAKLI SO‘ZLARNI TOPISH” MASHQI

O‘quvchilardan 1 daqiqa ichida matn ichidan unli harflar bilan boshlanadigan so‘zlarni topib, uning tagiga qalam bilan chizib chiqish so‘raladi. Eng ko‘p so‘z topgan o‘quvchi g‘olib deb topiladi. Masalan:

Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan. Qadim zamonda bir chol-u kampir bor ekan. Bular baxt uchun tug‘ilgan ekan. Ammo choli tushmagur anqovroq ekan. Kunlardan birida kampir cholga o‘tin olib kelishni buyuribdi va qo‘liga o‘roq bilan non beribdi. Chol o‘tinga boribdiyu, o‘rog‘ini yo‘qotib, quruq qaytibdi. Chol bo‘lgan voqeani aytibdi. Kampir cholni rosa koyibdi. Kampir yana cholni o‘tinga yuboribdi. Bu safar u cholga pishgan kishmish bilan non beribdi. Chol ovqatni bir shum sichqonga oldiribdi, och qaytibdi. Keyin u kampiriga hasrat qilibdi. Ammo choli tushmagur mug‘ombir ekan. U sichqon bilan juda qalin do‘st-ulfat ekan. Ovqatni ham u bilan baham ko‘rishni istar ekan. Kampir

achchig‘idan otashkurakni qizdirib, sichqon yoniga boribdi...

Shuningdek, matndan qandaydir harfni topish va uning tagiga chizib chiqish vazifasi ham berilishi mumkin.

Bir kuni echki suruvdan chiqqan ekan, och bo’riga duch kelibdi.

– Seni yeyman! – Debdi bo’ri.

– Meni-ya?

– Ha seni.

– Rahm qil.

– Rahm qilmayman seni butunlayin yutib yuboraman...

“QO‘SHILIB QOLGAN MATN” USULI

Dunyodaengkattahayvonko`kkitdir.Uninguzunligio`ttizmetrdanoshadi.Buketmaketqo`yilganoltitafildanuzunroqdir.Bittako`kkitningog`irligio`ttiztafilog`irligidanko`proqbo`lib,biryuzelliktonnagachayetadi.Bittako`kkityettidavagongayukbo`ladi...

Dunyoda/eng/katta/hayvon/ko`k/kitdir/.Uning/uzunligi/o`ttiz/metrdan/oshadi./Bu/ketma/ket/qo`yilgan/oltita/fildan/uzunroqdir./Bitta/ko`k/kitning/og`irligi/o`ttizta/fil/og`irligidan/ko`proq/bo`lib/,bir/yuz/ellik/tonnagacha/yetadi./Bitta/ ko`k /kit /yettida /vagonga /yuk/ bo`ladi.

Matndagi so‘zlarni bir-biridan ajratib chiqqan o‘quvchidan matnda nechta gap yoki nechta so‘z borligini, nechta unli yoki nechta undosh harflar bilan boshlanadigan so‘zlar ishtirok etganligini ham topish so‘raladi. Natijada o‘quvchi operativ tarzda matnni ko‘zdan kechirib, undagi so‘z va gaplarni tez o‘qish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

“SARLAVHASIZ MATN” USULI

Ushbu metod o‘quvchiga hikoya yoki matndagi asosiy mazmunni topishga, mushohada yuritishga, matn yuzasidan tez fursatda xulosa chiqarishga, qisqa muddatda matnni ko‘zdan kechirib, kerakli ma’lumotni topa olishga yordam beradi. O‘quvchiga matn beriladi. Matn nima haqida ekanligi, hikoya yoki ertak o‘quvchiga tanish yoki notanish ekanligi, matnga qanday nom berish mumkinligi so‘raladi.

Matn:

Erta tongda amakim bilan o‘rmon sari yo‘l oldik. Amakim yo‘lda uchragan yosh nihollarni ehtiyotlab surib, yo‘l ochib borardi. Chumolilar yashaydigan tepalikka yaqinlashdik. Durbinini olib, chumolilar uyasiga yaqinroq joydagi to‘nkaga o‘tirib, uni kuzata boshladi. Amakim beozor, hamjihat chumolilarni yaxshi ko‘rganidan ularning uylarini qo‘riqlab o‘tirardi. Bunday paytda u kishidan chumolilar hayoti, kurashi va ular o‘rtasidagi mehnat taqsimoti haqida ko‘p narsalarni bilib oldim.

Matnga sarlavha qo‘ying:

Kuz sovuq qishga astoydil tayyorgarlik ko‘rish mavsumi. Kuz yangi rejalar, yangi umidlar davri. Ko‘chada sayr qilar ekansiz, har bir lahzani xotirangizga muhrlaysiz. Bu faslda havo kuz iforiga to‘ladi. Kuz xotirjamlik fasli. U xuddi tulkiga o‘xshaydi: sariq, o‘yinqaroq, yumshoq va iliq. Atrof xuddi chiroyli ertak sahifalaridan paydo bo‘lganga o‘xshaydi. Yil davomida qilingan mehnat hosilini yig‘ish vaqti bo‘lib hisoblanadi. Xuddi yaproqlar gullarga aylanadi. Kun bo‘yi daraxtzorda sayr qilgingiz keladi. Faqat kuzda to‘kilgan yaproqlarning shitirlashidan qalbingiz to‘lqinlanadi.



“KENGAYTIRISH MASHQLARI” - periferik ko‘rish imkoniyatlarini qo‘lga kiritish maqsadida qo‘llaniladi. Bunday mashqlar o‘quvchida diqqatni jamlash va ularda ko‘rish orqali

ilg‘ash malakalarini mustahkamlaydi. “Labirint”, “Shulte jadvali”, “Ponasimon jadvallar”, “Strup test” mashqlarining oddiy ko‘rinishlari o‘quvchilarda ko‘rish maydonining kengayishiga yordam beradi. “Parda ortidan o‘qish mashqi” ham o‘quvchida ko‘rish va ilg‘ay olish malakalarining shakllanishiga olib keladi.

Tez o‘qishni o‘rgatish amaliyotida **“TO‘G‘RI VA TESKARI O‘QISH”** mashqlarining ahamiyati ham beqiyos. Matnni kuzatish davomida o‘quvchiga undagi so‘z va gaplar, uning mazmuni va syujeti tanish bo‘lib qoladi. Matnni ko‘zdan kechirish va uni tez o‘qishda hikoyani teskari holatda kuzatish va uni o‘qishni mashq qilib ko‘rish ham juda katta yordam beradi.

QADIM ZAMONDA CHO'QQILARI BULUTGA TEGADIGAN TOG' ETAGIDAGI QISHLOQDA QODIR ISMLI YETIM BOLA YASHAR EKAN. U PODACHILIK QILAR EKAN. BIR KUNI QODIR QAMISHDAN AJOYIB NAY YASAB, CHALISHNI O'RGANIBDI. U ASTA-SEKIN NAY CHALISHGA USTA BO'LIBDI. MUSIQA ILMINI YAXSHI O'RGANISH MAQSADIDA SAFARGA CHIQIBDI. U YO'LDA UCHRAGAN YO'LOVCHILARDAN ENG ZO'R USTA SOZANDANI QAYERDAN TOPISHNI SURISHTIRIBDI. BIR SHAHARDA MASHHUR HOFIZNI TOPIBDI VA UNGA MAQSADINI AYTIBDI. BU HOFIZ USTA SOZANDA HAM EKAN. U HOFIZNING QO'LIDA TO'QQIZ YIL ASTOYDIL O'QIBDI VA MASHUR SOZANDA BO'LIB YETISHIBDI.

QADIM ZAMONDA CHO'QQILARI BULUTGA TEGADIGAN TOG' ETAGIDAGI QISHLOQDA QODIR ISMLI YETIM BOLA YASHAR EKAN. U PODACHILIK QILAR EKAN. BIR KUNI QODIR QAMISHDAN AJOYIB NAY YASAB, CHALISHNI O'RGANIBDI. U ASTA-SEKIN NAY CHALISHGA USTA BO'LIBDI. MUSIQA ILMINI YAXSHI O'RGANISH MAQSADIDA SAFARGA CHIQIBDI. U YO'LDA UCHRAGAN YO'LOVCHILARDAN ENG ZO'R USTA SOZANDANI QAYERDAN TOPISHNI SURISHTIRIBDI. BIR SHAHARDA MASHHUR HOFIZNI TOPIBDI VA UNGA MAQSADINI AYTIBDI. BU HOFIZ USTA SOZANDA HAM EKAN. U HOFIZNING QO'LIDA TO'QQIZ YIL ASTOYDIL O'QIBDI VA MASHUR SOZANDA BO'LIB YETISHIBDI.

PEREFRAZA METODI

Bu metod matn ustida ishlashning eng samarali usullaridan biri bo‘lib, matnni **tez o‘qishdan oldingi tayyorgarlik** uchun qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchisining lug‘at boyligini o‘stirishga, matn mazmunini eslab qolishga, matndan kerakli ma’lumotni tezda topib olishga yordam beradi. Matn bilan tanishtirishda shu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi. O‘quvchiga matn beriladi. Avval matndagi gaplar ichidan o‘quvchi o‘ziga tanish bo‘lgan so‘zlarni o‘z ma’nodoshi bilan almashtirilishi talab etiladi. So‘ng vaqt beriladi. Ya’ni 3-5 daqiqada matndagi so‘zlarning nechtasini o‘z ma’nodoshi bilan almashtirib chiqqanligi tekshiriladi. Vazifani bajarishda tezkorlik talab etiladi. O‘quvchi matn bilan tanishadi, so‘ngra undan matnni tez o‘qish talab etiladi

MATN:

HAVO BULUT BO‘LDI. QATTIQ SHAMOL TURDI. YIRIK YOMG‘IR TOMCHILARI TUSHA BOSHLADI. KUCHLI MOMAQALDIROQ BO‘LDI. KETMA – KET CHAQMOQ CHAQDI. BIROZDAN SO‘NG BULUT TARQALIB QUYOSH KO‘RINDI. BAHORGI YOMG‘IRDAN SO‘NG, TABIAT JUDA GO‘ZAL BO‘LADI.

PEREFRAZA:

KUN SALQIN BO‘LDI. KUCHLI SHABADA ESA BOSHLADI. KATTA YOMG‘IR DONALARI YOG‘A BOSHLADI. QATTIQ MOMAQALDIROQ BO‘LDI. TEZ-TEZ CHAQIN CHAQDI. DAM O‘TMAY BULUT QOLMAY OFTOB CHIQDI.

KO‘KLAM YOMG‘IRIDAN KEYIN ATROF ROSA CHIROYLI KO‘RINADI.

“MATNDAGI GAPLARGA SAVOL QO’YISH” MASHQI

HAVO BULUTLI BO‘LDI. QATTIQ SHAMOL TURDI. YIRIK YOMG‘IR TOMCHILARI TUSHA BOSHLADI. KUCHLI MOMAQALDIROQ BO‘LDI. KETMA – KET CHAQMOQ CHAQDI. BIROZDAN SO‘NG BULUT TARQALIB QUYOSH KO‘RINDI. BAHORGI YOMG‘IRDAN SO‘NG, TABIAT JUDA GO‘ZAL BO‘LADI.

HAVO QANDAY BO‘LDI? QANDAY SHAMOL TURDI? YIRIK NIMALAR TUSHA BOSHLADI? QANDAY MOMAQALDIROQ BO‘LDI? KETMA – KET NIMA CHAQDI? QACHON BULUT TARQALIB QUYOSH KO‘RINDI? BAHORGI YOMG‘IRDAN SO‘NG, NIMA JUDA GO‘ZAL BO‘LADI?

Bunday mashqni o’qish va ona tili darslarida matn ustida ishlashda qo’llash yuqori samara beradi. Mashq orqali o’quvchiga matndagi har bir so’z tahlil qilinadi. Natijada lug'at ishi ham to’liqamalga oshiriladi. Shuningdek, o’quvchilar gap va uning bir necha turdagi so’roq shaklini hosil qiladilar, so’z turkumlariga savol so’zlar va gapda so’roq qo’shimchalarini qo’llashga o’rganadilar.

O‘qish mashqlari davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ham fiziologik, ham psixologik imkoniyatlariga

e’tibor qaratish talab etiladi. Bolalarning toliqishi va ularning zerikishini oldini olish maqsadida dars va mashqlar oralig‘ida dam olish daqiqalari tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunday mashqlardan biri “Ko‘zlar yordamida rasm chizish”, “Ko‘zlarni tez-tez ochib yumish” kabi mashqlardir. Ko‘zlarda qon aylanishini yaxshilashga harakat qilish va ularning toliqishiga yo‘l qo‘ymaslik-tez o‘qish ko‘nikmalarini ta’minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

O'quvchi jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va resurslar ro’yxati

1. “Xalq so`zi” gazetasi, 2017-yil 13-yanvar. – №9. – B. 1
2. Jo’rayev A.J. Tarbiyaviy darslarni o’tish. Sinf rahbarlari uchun qo’llanma. -T.:O’qituvchi, 1994 y.
3. www. sputniknews.uz.
4. www.ziyouz.com
5. www.uzedu.uz
6. www.kun.uz
7. www.gazeta.uz